

## O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZOLIGI, OQIBATLARI VA FOYDALARI

**Normamat Mallayev**

Termiz davlat universiteti,

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasini o‘qituvchisi, dotsent.

**Akmuratov Otamurod Bobomurod o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20826369>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Jahon Savdo Tashkiloti qachon? nima sababdan ochildirilgan? O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni, xalqaro tajriba hamda milliy iqtisodiyotga kutilayotgan ta‘siri haqida ma‘lumot keltiriladi.*

*Tadqiqotda JSTga a‘zolikning tashqi savdo siyosatini erkinlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish va milliy qonunchilikni xalqaro savdo normalariga moslashtirishdagi o‘rni yoritiladi.*

*Shuningdek, a‘zolik jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, xususan, ichki bozorni himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning moslashuvi baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Eksport , Import , Investorlar, Investitsiya, Savdoning integratsiyashuvi, Proteksionizm, Ishsizlik darajasi, Qishloq xo‘jaligi, Yalpi Ichki Mahsulot Hajmi (YAIM).*

### **Kirish**

**Jahon savdo tashkiloti (JST)** — mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi. Mazkur tashkilot xalqaro tijorat uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyat eshigi. O‘zaro qabul qilingan muhim hujjatlar davlatlarning o‘z savdo siyosatlarini kelishilgan mezonlarda olib borishlarida mas‘uliyat yuklaydi.

Bundan ko‘zlangan maqsad — jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiquvchilar, eksportyor va importyorlarga ko‘mak berishdir<sup>1</sup>.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng savdo strategiyasining global muvofiqlashtirishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan xalqaro savdo tashkilotlarini yaratish uchun harakatlar boshlandi. Bu harakatdan hammadan ko‘ra xalqaro savdodagi ulushi 40 % atrofida bo‘lgan AQSH manfaatdor edi. Natijada 1947-yil 30-iyunda Tarif va savdo masalalari bo‘yicha vaqtinchalik shartnoma GATT(General Agreement on Trade and Tariffs) imzolandi. Iqtisodiy tiklanish maqsadi bilan tuzilgan vaqtincha hisoblangan ushbu kelishuv 1948-yil 1-yanvardan kuchga kirgan va ushbu kelishuv qariyb 50 yil davomida xalqaro tashkilot sifatida xizmat qilgan.

GATTning asosiy maqsadi xalqaro savdodagi to‘siqlarni kamaytirishdir. **Jahon Savdo Tashkiloti (JST) tashkil topish jarayoni** - 1995-yil 1- yanvardan boshlab JST mustaqil xalqaro tashkilot sifatida faoliyatini yurita boshladi va shu yilning o‘zida unga 125 ta davlat a‘zo bo‘ldi 2011-yil dekabriga kelib JST a‘zolari soni 157 ta bo‘lib, 26 ta davlat kuzatuvchi maqomiga ega.

A‘zo bo‘lgan mamlakatlar hissasiga Jahon savdo aylanmasining 97 % to‘g‘ri keldi va 14,85 trln. dollarga teng bo‘ldi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://parliament.gov.uz/>

O'zbekiston 1994-yil dekabr oyida Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish uchun ariza berdi, biroq bir necha yildan so'ng muzokaralar yakuniga yetdi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng yigirma yil ichida JSTga a'zo bo'lgan yagona Markaziy Osiyo davlati bo'lgan Qirg'izistonni hisobga olmaganda, Markaziy Osiyo davlatlari orasida bu odatiy hol emas edi. Chunki O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ichki iqtisodiy va siyosiy jarayonlar kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1996 yilning oktabrida O'zbekiston hukumati keskin valyuta nazoratini o'rnatish orqali paxta eksportidan tushumlar kamayib borayotganiga munosabat bildirgach va JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar sekinlashganida hammasi o'zgardi.

**O'zbekiston Respublikasi** savdo bo'yicha dunyoda reytingi baland davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatgan. O'zbekiston Respublikasi import hajmi eksport hajmiga nisbatan yuqoriroq.

Chunki biz XXI asrda yashayapmiz. Bu asr texnologiyalar asri nomi bilan kirib keldi. O'zbekiston Respublikasida Yaponiya Koreya Turkiya Rossiya Qozog'iston Xitoy kabi davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ulardan bittasini misol qilishimiz mumkin, bu 1996-yilda tashkil topilgan "Uz Auto Motors" kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya Andijon viloyati Asaka tumanida joylashgan. Kompaniya avtomobil ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Shu kungacha tiko, damas, nexia, orlondo, tracker, captiva, nexia 2, nexia 3 chevrolet lasetti, Gentra, cobalt avtomobillari va yuk tashuvchi isuzu avtomobilini ishlab chiqargan.

O'zbekiston Respublikasi agar Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lsa foyda va zararlari quyidagilardan iborat:

#### **Xorijiy tajriba:**

Qozog'iston JSTga 2015-yil a'zo bo'lgan va makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlardan eksportning o'sishi tashkilotga a'zo bo'lishidan avvalgi 2013-2015 yillarda 1,30 %ga kamaygan bo'lsa, a'zolikdan keyin 2016-2018 yillarda 4,37 %ga o'sgan, **2019-2021**-yillarda esa, 2,43 %ga yana pasaygan. Mamlakatning importiga to'xtaladigan bo'lsak, 2013-2015 yillarda 1,23 %ga o'sgan bo'sa, 2016-2018 yillarda 1,87 %ga o'sish, 2019-2021 yillar esa 1,07 %lik o'sish kuzatilgan. Shuningdek, ishsizlik darajasi 2013-2015 yillarda 5,06 % bo'lgan bo'lsa, a'zolikdan keyin esa, 4,86 %ga pasayganligini ko'rish mumkin. Bular esa, Qozog'istonning tashkilotga a'zoligi uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining sezilarli ravishda o'zgarishiga imkoniyat berganligini ko'rsatmoqda.

**2019-2021-yilda eksport hajmining kamayishining asosiy sababi bu Pandemiya davriga to'g'ri kelganligi , shuningdek Faqatgina Qozog'iston davlatida emas balki barcha davlatlarda ushbu yillarda iqtisodiy pasayish kuzatilgan.**

O'zbekiston iqtisodiyoti o'z vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz o'sishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi. Jahon bankining hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning yirik iqtisodiy hamkor davlatlarining iqtisodiyotlarida o'sish qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda, 2021 yilda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi bo'lib, mos ravishda 9,2 va 8,7 foizga o'sgan. Bundan tashqari, 2021 yilda qishloq xo'jaligi 4,0 foizga hamda qurilish sohasi 6,8 foizga o'sgan.

---

<sup>2</sup> <https://www.wto.org>

Shuningdek, YAIMning 7,4 foizlik o'sishining 3,3 foiz bandi xizmatlar va 2,2 foiz bandi sanoat sohasi hisobiga to'g'ri keladi. 2020 yilda pandemiya sababli, mazkur sohalarning iqtisodiy o'sishdagi ulushi eng ko'p kamaygan sohalar bo'lgan. Qishloq ho'jaligi iqtisodiyot o'sishining 1,0 foiz bandini ta'minlagan bo'lsa, sof soliqlar va qurilishga o'sishning mos ravishda 0,5 foiz band va 0,4 foiz bandi to'g'ri keladi. **Pandemiyaga qaramasdan iqtisodiy ko'rsatkichlardagi barqaror o'sish suratlari JSTga a'zolik orqali kutilayotgan salbiy oqibatlariga mamlakat iqtisodiyoti tayyor ekanligini yana bir bor isbotlaydi.** Kichik va o'rta biznes uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, xorijiy investitsiyalar uchun berilayotgan imtiyozlar va erkinliklar mamlakatning rivojiga hissa qo'shayotgan asosiy sektorlardir<sup>3</sup>.

#### **Foydalari:**

O'zbekiston Respublikasi ichki savdolarida chet el brendlari ko'payadi keyin chet el mashinalari chet el kompaniyalari ochiladi. Sifatli mahsulotlar Respublika hududidagi bozorlarni bir necha oylarda egallab oladi. Keyin O'zbekistonning ichki eski korxonalarini chet el texnologiyalaridan foydalanib boshlaydi bu yaxshi chet el texnologiyalari sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda yordam beradi. Keyinchalik bu mahsulotlar jahon savdosida yaxshi baholanib chet el litsenziyalarini olishga zamin yaratadi. O'zbekiston Jahon Savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lganidan so'ng tashkilotdagi a'zo davlatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yadi.

Agar a'zo bo'lsa, hali a'zo bo'lmagan, keyinchalik a'zo bo'lsa O'zbekistonda eksport hajmi sezilarli darajada oshadi chet el investitsiyalari O'zbekistonni qamrab oladi. Bunda yangi ish o'rinlar vujudga keladi, ishsizlik kamayadi. Yalpi Ichki mahsulot oshadi.

Keyinchalik ham O'zbekiston global savdo bozorida o'z o'rnini topadi. O'zbekiston mahsulotlari butun dunyo bo'ylab sotiladi, o'z xaridorlariga ega bo'lgan davlatda eksport hajmi oshadi. Shuningdek iqtisodiy rivojlanish sezilarli darajada ko'tariladi.

Chet el investorlari hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritmoqda lekin bu kamchilikni tashkil etmoqda. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan so'ng investorlar ko'plab katta miqdorda kapital kiritishni boshlaydi. Misol uchun o'zimizni Surxondaryo viloyatini olsak Surxondaryo viloyati kattaligi va tabiiy boyliklari bilan respublikada yaxshi o'rinlarda turibdi. Surxondaryo viloyatiga sarmoyalar kiritsak nimalar bo'lishi mumkin?

Surxondaryo viloyati Respublikaning janubida joylashgan bo'lib namgarchilik kamligi tufayli qishloq xo'jaligiga o'rtacha miqdorda kapital kiritisa bo'ladi. Asosan Surxondaryo Viloyati tog'li hududlari ko'p joyni tashkil etganligi tufayli tabiiy boyliklar shuningdek gazga katta e'tibor qaratish kerak.

Surxondaryo viloyatida joylashgan gaz koni dunyo reytingda kuchli o'rinlarda turadi. Bir gaz eksporti bilan yaxshigina daromad ko'rsa bo'ladi. Surxondaryo viloyati geografik jihatdan 3 ta davlat bilan chegaradosh hisoblanadi. Bular: Afg'oniston Islom Respublikasi, Turmaniston va Tojikiston Respublikalari.

Agar biz Afg'oniston Islom Respublikasi bilan savdo shartnomalarini imzolasak

Bizda katta o'zgarishlar vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi eng yaqin okean Hind okeani bo'lib qariyb bizdan 1000 km uzoqlikda joylashgan.

<sup>3</sup> <https://share.google/MtA72dAZ1KN58hANd>

Agar biz Hind okeaniga chiqish uchun bir nechta davlatdan o'tishimiz kerak, agar shu shu davlatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yib savdo shartnomalarini imzolasak va Hind okeanining qirg'og'ida o'z dengiz portimizni qursak, bizda keyin dengiz savdosi uchun sharoit ochiladi. Dengiz savdosidan yaxshigina daromad ko'rsak bo'ladi.

Bizning fikrimizcha korxonalar va ko'plab zavodlar Surxondaryo viloyatida qurilishini hojlaymiz. Lekin Surxondaryo viloyati Savdo uchun juda yaxshi geografik joy hisoblanadi.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lsa eksport oshadi savdo hajmi yaxshilanadi va milliy valyuta barqarorligini taminlaydi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo'llab Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqobatbardoshlik darajasini oshiradi.

Raqobat tufayli mahalliy va horijiy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini sifatli va iqtisodiy jihatdan maqbul qilishga harakat qiladi.

Jahon Savdo Tashkilotiga mamlakatimizning a'zo bo'lishi xalqaro savdoda faolroq ishtirok etish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun katta imkoniyatlar beradi. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish uchun biz respublikamiz hududida mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik va katta korxonalarini qollab quvatlab kerakli shart-sharoitlar va imtiyozlar yaratishimiz kerak.

### **ZARARLARI**

Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lganimizdan so'ng faqat foyda emas zararlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Bularga O'zbekiston Respublikasida import hajmi oshadi, bu esa ma'lum zarar va oqibatlarni vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan kiyim kechak har xil mahsulotlar jahon standartlariga javob bermaydi. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lsak Yevropa davlatlarida ishlab chiqarilgan kiyim kechaklarni olsak bu mahsulotlar juda sifatli va hamyonbob narxlarda Respublika bozorlariga kirib keladi.

Bu esa O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan kiyim kechaklar sifati puliga arzimasi tufayli raqobatda yengilib o'z haridorlarini yo'qotadi.

Bu esa kiyim kechak fabrikalarini yopilishiga olib keladi va ishsizlik ham oshadi.

O'zbekiston Respublikasining Milliy kiyimlariga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Bu esa milliylikni yo'qotishimizga o'zgina bo'lsa ham hissa qo'shadi. Yana milliy iqtisodiyotning raqobatlashuvi pasayishiga olib keladi.

Agar milliy korxonalarimiz zamonaviy texnologiyalarini qo'llaganda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasa va chet ellik firmalar bilan raqobat qilolmasa ular bankrot bo'lish xavfiga uchrashi mumkin.

Misol uchun qishloq xo'jaligi va yengil sanoat import mahsulotlari bilan raqobatlasha olmaydi. Ichki ishlab chiqaruvchilar faoliyatini yo'qotganda ishsizlik kelib chiqadi.

Bu esa kichik va o'rta bizneslar uchun qattiq zarba beradi. Mamlakatimizning chekka hududlari yoki sanoat yaxshi rivojlanmagan hududlarimiz dunyo bozor ta'sirida iqtisodiy tomondan tanazzulga uchrashi mumkin.

Xalqaro savdo tashkiloti talablari bo'yicha bojxona to'lovlari va boshqa ta'riflarni qisqartirish eksport va import hajmiga zarar yetkazishi mumkin.

Mamlakatimiz va rivojlangan davlatlar eksport qilish paytida muammolar kelib chiqishi mumkin.

Lekin import hajmi eksportga nisbatan oshib ketadi. Tashqi qarzning o'sishi xavfi ortadi, chunki mamlakatimiz rivojlanish uchun import qilingan mahsulotlarni ko'p miqdorda sotib olishga majbur bo'ladi. Chetdan keladigan arzon va past sifatli mahsulotlar tufayli mahalliy qishloq xo'jaligimizni ishlab chiqarish hajmi pasayishiga olib keladi

Dunyo kompaniyalarining ekologik me'yorlariga rioya qilmasligi atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lish nafaqat iqtisodiy imkoniyatlar, balki muayyan xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro savdo tashkiloti bilan integratsiya milliy manfaatlarga mos keladigan tarzda, bosqichma –bosqich amalga oshirilishi mumkin. Shu yo'l bilangina kutilayotgan zararlarni minimallashtirish va iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin:

Bular: Ichki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ya'ni texnologik taraqqiyotni tezlashtirish kerak.

Kichik va o'rta biznesni raqobatbardosh qilish uchun davlatimiz qo'llab quvvatlash dasturlarini yaraish kerak.

Ichki bozorni himoya qilish uchun strategik sohalarga subsidiya kiritishi lozim.

#### **Takliflar:**

Birinchi navbatda taklifimiz shundan iboratki, yuqoridagi keltirgan fikrlarimizga binoan O'zbekistonning tadbirkorlik va savdo sohasidagi barcha milliy qonunchiligini Xalqaro Savdo normalariga moslashtirish lozim ekanligini guvohi bo'ldik. Yana bir jihatni e'tiborga olish lozimki ko'plab davlatlar JST talablarini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish yo'lini tanlaydi, bu esa huquqiy nomuvofiqliklarga olib keladi, buning uchun JST ga a'zo bo'lgan davlatlar JST ga mos qonunlarni ishlab chiqishda huquqiy inkubatorlar ( Oliy ta'lim muassasalari, mustaqil ekspertlar, yosh tadqiqotchilar ) mexanizmini joriy etish kerak.

Yana bir asosiy takliflarimizdan biri, JSTga a'zo bo'lish jarayonida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun chora-tadbirlar ko'rish zarur va lozim. Chunki xorijiy tajribadan xuloasa qilib ayta olamizki davlatimiz JST ga a'zo bo'lishidan oldin mahalliy ishlab chiqarishni xalqaro savdoga raqobatbardoshligini oshirish kerak. Agar mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi oshirilmay xalqaro savdo talablariga to'liq javob bera olmasa mahalliy ishlab chiqarish tanazzulga yuz tutadi, shuning uchun JST ga qo'shilishdan oldin mahalliy ishlab chiqarishdagi "zaif sohalar" ro'yxatini aniqlab davlat dasturlarini ishlab chiqarish kerak.

#### **Xulosa**

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi iqtisodiyot rivoji uchun foydaliroqdir. Xalqaro bozorlarga chiqish osonlashadi, savdo tartiblari aniqroq bo'ladi va investitsiyalar ko'payadi. Shu bilan birga, JSTga a'zolik ayrim qiyinchilik va oqibatlarini xususan, ichki bozor raqobat kuchayishi sababli ayrim sohalarda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, lekin bu mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rivojlanishga undaydi. Fikrimizcha a'zolik mamlakatimiz uchunkelajakda ijobiy natijalar beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://share.google/MtA72dAZ1KN58hANd>
2. <https://parliament.gov.uz/>
3. <https://library-tsul.uz/xalqaro-savdo-huquqi-gulyamov-s-2009/>
4. <https://library-tsul.uz/category/xalqaro-ommaviy-huquq/>
5. <https://www.wto.org/>
6. <https://adliya.uz/ru/posts/ozbekistonda-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolish-y>